








## XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar oyi uchun dastlabki ma'lumot)

Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda, milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar oyi yakuni bo'yicha viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 38,6 mln AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 19,5 mln AQSh dollariga yoki 33,5 % ga kamaygan.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar, mln AQSh dollari)

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
 Tashqi savdo aylanmasi	58,1	38,6	66,5%	X
 Eksport	12,5	17,3	138,3%	100,0
 tovarlar	12,2	15,8	129,8	91,0
 xizmatlar	0,3	1,5	4,1 m.	9,0
 Import	45,5	21,3	46,7%	100,0
 tovarlar	45,5	21,3	46,7	100,0
 Saldo	-33,0	-4,0	X	X

Eksport hajmi 17,3 mln. AQSh dollari (38,3 % ga ko'paygan) bo'lib, import hajmi 21,3 mln AQSh dollarini (53,3 % ga kamaygan) tashkil etdi. Hisobot davrida 4,0 mln AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



**XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR**  
(2022- yil yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi % da)



**Turkiya**

TSA – 13,1  
Eksport – 2,4  
Import – 10,7



**Rossiya Federatsiyasi**

TSA – 8,6  
Eksport – 6,0  
Import – 2,5



**Xitoy Xalq Respublikasi**

TSA – 4,6  
Eksport – 0,9  
Import – 3,7



**Qozog'iston**

TSA – 2,8  
Eksport – 2,3  
Import – 0,5



**Germaniya**

TSA – 1,2  
Eksport – 0,4  
Import – 0,8



**Qirg'iziston Respublikasi**

TSA – 1,0  
Eksport – 1,0  
Import – 0,0



**Pokiston**

TSA – 0,8  
Eksport – 0,8  
Import – 0,0



**Hindiston**

TSA – 0,7  
Eksport – 0,0  
Import – 0,7



**Ukraina**

TSA – 0,6  
Eksport – 0,3  
Import – 0,3



**Eron**

TSA – 0,6  
Eksport – 0,5  
Import – 0,1

Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha jahonning 45 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Turkiya (33,8 %), Rossiya Federatsiyasi (22,1 %), Xitoy Xalq Respublikasi (11,9 %), Qozog'iston (7,3 %) davlatlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.



**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN  
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**  
(yanvar, mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Turkiya</b>	<b>2,5</b>	<b>3,2</b>	<b>13,1</b>
Eksport	1,3	2,1	2,5
Import	1,2	1,1	10,6
Saldo	0,1	1,0	-8,3
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>11,0</b>	<b>5,0</b>	<b>8,5</b>
Eksport	8,0	2,4	2,5
Import	3,0	2,6	6,0
Saldo	5,0	- 0,2	-3,5
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>7,5</b>	<b>19,7</b>	<b>4,6</b>
Eksport	1,5	2,5	0,9
Import	6,0	17,3	3,7
Saldo	- 4,5	- 14,8	- 2,8
<b>Qozog'iston</b>	<b>0,3</b>	<b>1,2</b>	<b>2,8</b>
Eksport	0,2	0,5	0,5




XORAZM VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

Davlat nomi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Import	0,1	0,7	2,3
Saldo	0,1	-0,2	-1,8
<b>Germaniya</b>	<b>1,0</b>	<b>2,0</b>	<b>1,2</b>
Eksport	0,0	0,1	0,4
Import	1,0	1,9	0,8
Saldo	-1,0	-1,8	-0,4
<b>Qirg'iziston Respublikasi</b>	<b>0,2</b>	<b>2,2</b>	<b>1,0</b>
Eksport	0,2	2,0	1,0
Import	0,0	0,0	0,0
Saldo	0,2	2,2	1,0
<b>Pokiston</b>	<b>0,0</b>	<b>0,4</b>	<b>0,8</b>
Eksport	0,0	0,2	0,0
Import	0,0	0,2	0,8
Saldo	0,0	0,0	-0,8
<b>Hindiston</b>	<b>2,0</b>	<b>0,4</b>	<b>0,7</b>
Eksport	0,0	0,1	0,0
Import	2,0	0,3	0,7
Saldo	-2,0	-0,2	-0,7
<b>Ukraina</b>	<b>0,5</b>	<b>0,7</b>	<b>0,6</b>
Eksport	0,4	0,5	0,3
Import	0,1	0,3	0,3
Saldo	0,3	0,2	0,0
<b>Eron</b>	<b>0,8</b>	<b>0,4</b>	<b>0,6</b>
Eksport	0,2	0,1	0,1
Import	0,6	0,3	0,5
Saldo	-0,4	-0,2	-0,4



**XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022 - yilning yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 37,3 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022 - yilning yanvar oyida 2021 - yilning shu davriga nisbatan 48,8 foizga kamaygan va jami TSA dagi ulushi 62,7 % ni tashkil etdi.


## XORAZM VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar)

Joriy yilning yanvar oyida viloyatning eksportyorlari soni 56 tani tashkil etib, ular tomonidan 17,3 mln AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 38,3 % ga ko'paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 91,0 % ni tashkil etib, ular asosan sanoat tovarlari (53,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (23,8 %), turli xil tayyor buyumlar (6,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar, ulushi, % da)



- |   |  |
|---|--|
|  Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 23,8                         |  Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 0,0 % |
|  Ichimliklar va tamaki – 0,0 %   |  Sanoat tovarlari – 53,5 %  |
|  Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari – 5,2 %                       |  Mashinalar va transport asbob-uskunalar – 0,1 %  |
|  Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 1,5 % |  Turli xil tayyor buyumlar – 6,9 %  |
|  Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar – 0,0 %       |  Xizmatlar – 9,0 %  |



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mIn AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mIn AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mIn AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Jami eksport</b>	<b>17,3</b>	<b>138,2</b>	<b>100,0</b>	<b>10,7</b>	<b>160,2</b>	<b>100,0</b>	<b>6,6</b>	<b>113,2</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,1	118,3	23,8	2,7	102,6	25,5	1,4	168,9	21,8
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,9	157,7	5,2	0,2	170,6	2,0	0,7	153,9	10,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,3	0,0	1,5	0,1	-	1,0	0,2	-	2,5
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	9,0	0,0	-	-	-	0,0	-	-
Sanoat tovarlari	9,3	128,6	53,5	5,2	182,0	48,6	4,1	93,5	63,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,0	27,5	0,1	0,0	27,5	0,2	0,0	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	1,2	147,5	6,9	1,2	160,2	11,2	0,1	48,0	0,1
Xizmatlar	1,6	4,1 m.	9,0	1,2	5,9 m.	11,5	0,1	2,4 m.	1,3

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yoʻnalishi boʻyicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

2022- yilning yanvar oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, 2021- yilning yanvariga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilgʻidan tashqari), mineral yoqilgʻi, yogʻlash moyi va shunga oʻxshash materiallar, hayvon va oʻsimliklar moyi (yogʻlari), yogʻlar va mumlar eksportida pasayish kuzatildi.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI  
(yanvar, % da)**


XSST tarkibi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,2	27,8	23,8
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xom ashyo, yoqilgʻidan tashqari	11,5	4,6	5,2
Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moyi va shunga oʻxshash materiallar	-	-	1,5
Hayvon va oʻsimliklar moyi (yogʻlari), yogʻlar va mumlar	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar	0,1	0,2	0,0
Sanoat tovarlari	65,2	57,5	53,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	0,5	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	2,2	6,5	6,9
Xizmatlar	12,7	3,0	9,0






**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR  
EKSPORTI HAJMLARINING DINAMIKASI**  
(yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi % da)

2022- yilning yanvar oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 34,8 %), Turkiya (14,0 %), Qozog'iston (13,6 %), Qirg'iziston (5,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi (5,3%), Pokiston (4,5 %) va Eron (3,1 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi umumiy ulushi 81,0 foizni tashkil etmoqda.





**XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARNING ULUSHI**  
(2022- yil yanvar, % da)



2022- yilning yanvar oyida o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeyini saqlab turibdi. Keyingi holatda Turkiya va Qozog'iston o'rin egallagan.



**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA  
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**  
(yanvar)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'zni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	2,6	6,0	87,2	2,3	1	1
Turkiya	2,1	2,4	155,6	117,2	4	2
Qozog'iston	0,6	2,3	5,8 m.	3,6 m.	5	3

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Qirg'iziston Respublikasi	2,2	1,0	11,1 m.	45,0	3	4
Xitoy Xalq Respublikasi	2,5	0,9	168,5	37,3	2	5
Pokiston	0,2	0,8	-	3,8 m.	10	6

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xom ashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.




**XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar, mln. AQSh dollari)**

XSST tarkibi	Rossiya		Turkiya		Qozog'iston		Qirg'iziston	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Jami eksport	2,6	6,0	2,1	2,4	0,6	2,3	2,2	1,1
Shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,2	0,7	0,1	-	0,6	1,9	1,1	-
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,0	0,1	0,0	0,1	-	0,0	0,0	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	-	0,1	-	-	-	0,0	-	-
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-

XSST tarkibi	Rossiya		Turkiya		Qozog'iston		Qirg'iziston	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	-	-	-	-	-	-	0,0	-
Sanoat tovarlari	2,2	4,1	1,9	2,4	0,0	0,1	0,3	0,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	-	-	-	-	-	-	0,1	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	0,0	0,1	-	0,0	0,3	0,7	0,9
Xizmatlar	0,1	1,0	0,0	0,0	0,0	0,1	0,0	-

Xizmatlar eksporti hajmi 1,6 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 9,0 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,1 martaga o'sish kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (84,1%), safarlar (turizm) (10,8 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (5,2%) hissasiga to'g'ri kelgan.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 4,2 mln dollar qiymatli yoki 6,8 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2,3 mln AQSh dollariga teng 4,8 ming tonna sabzavot, shuningdek, 0,5 mln AQSh dollari qiymatidagi 1,0 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 24,0 % ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2022- yil yanvar, mln. AQSh dollari)



Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay

tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajribaga ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (44,3%), Pokiston (16,8%) va Rossiya Federatsiyasi (16,2 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.


### XORAZM VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar)

2022- yilning yanvar oyida import hajmi 21,3 mln AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 53,3 % ga kamaygan.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (68,5 %), sanoat tovarlari (11,3 %), nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari, 7,0 %) , turli xil tayyor buyumlar (4,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.



#### XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar, ulushi, % da)



 Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 2,0 %	 Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 6,0 %
 Ichimliklar va tamaki – 0,0 %	 Sanoat tovarlari – 11,3 %
 Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari – 7,0 %	 Mashinalar va transport asbob-uskunalar – 68,5 %
 Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 0,8 %	 Turli xil tayyor buyumlar – 4,4 %
 Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar – 0,0 %	

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,2 mln AQSh dollariga kamaygan va 21,3 mln AQSh dollarini tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mIn AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	mIn AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, %da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mIn AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, %da
<b>Jami import</b>	<b>21,3</b>	<b>46,7</b>	<b>100,0</b>	<b>3,7</b>	<b>90,4</b>	<b>100,0</b>	<b>17,6</b>	<b>42,4</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,4	2,6	2,0	0,3	30,3	7,2	0,2	1,0	0,9
Ichimliklar va tamaki	0,0	-	-	0,0	-	0,1	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,5	87,0	7,0	1,3	87,3	35,8	0,2	84,3	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash	0,2	34,5	0,8	0,1	36,2	3,7	0,9	29,0	0,2

materiallar									
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1,3	54,0	6,0	0,8	2,9 m.	22,3	0,5	22,0	2,6
Sanoat tovarlari	2,4	185,6	11,3	0,7	159,0	18,6	1,7	198,8	9,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	14,6	81,9	68,5	0,3	79,3	7,3	14,3	81,9	81,3
Turli xil tayyor buyumlar	0,9	16,4	4,4	0,2	71,2	5,1	0,7	13,7	4,3



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI**  
(2022- yil yanvar, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Jami import</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

shu jumladan:



Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	41,9	35,5	2,0
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,0
Noziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	8,2	3,7	7,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,4	1,1	0,8



XSST tarkibi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,8	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	3,5	5,2	6,0
Sanoat tovarlari	4,0	2,9	11,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	35,7	39,1	68,5
Turli xil tayyor buyumlar	5,5	12,6	4,4



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar, mln AQSh dollari, ulushi % da)



2022- yil yanvar oyida import bo'yicha eng yuqori yettitalikda Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Hindiston, Polsha hamda Koreya Respublikalari o'rin egalladi.




**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN  
AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI  
(yanvar)**

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Turkiya	1,1	10,6	97,5	9,4 m.	7	1
Xitoy Xalq Respublikasi	17,3	3,7	2,9 m.	21,3	1	2
Rossiya Federatsiyasi	2,4	2,5	30,2	102,5	4	3
Germaniya	1,9	0,8	193,3	41,5	5	4
Hindiston	0,3	0,7	14,7	2,5 m.	11	5
Polsha	0,1	0,5	-	5,4 m.	19	6
Koreya Respublikasi	3,2	0,5	3,8 m.	14,9	3	7



**XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARNING ULUSHI  
(2021- yil yanvar-dekabr)**



2022-yilning yanvar oyida viloyatga 27 ta xorijiy davlatlardan tovarlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya , Xitoy Xalq Respublikasi, , Rossiya Federatsiyasi, Germaniya , Hindiston, Polsha va Koreya Respublikasi hamkor davlatlaridan jami import hajmi 19,3 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 90,5 % ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan birqator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.: (62) 224-65-16**